O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

"Tasdiqlayman"
Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori Sh.S.Sharipov
_______________
2022 yil "___" ________

# MILLIY SPORT TURLARI VA XALQ O'YINLARINI O'RGATISH METODIKASI FANINING O`QUV DASTURI

**2-kurs**

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Ta'lim |
| Ta'lim sohasi: | 110000 – Ta'lim |
| Ta'lim yo`nalishi: | 60112200 – Jismoniy madaniyat |

Jizzax-2022

| Fan/modul kodi 351MSTXO`O`M04 | | O'quv yili 2022-2023 | Semestr 4 | ECTS- Kreditlar 4 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi Tanlov fan | | Ta'lim tili O'zbek | | Haftadagi dars soatlari 4 | |
| 1. | Fan nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Milliy sport turlari va xalq o'yinlarining o'rgatish metodikasi | | Maruza - 22<br>Amaliy - 38<br>**Jami: 60** | 60 | 120 |

**2.**

**I. Fanning mazmuni**

Ushbu o'quv dastur milliy sport turlari va xalq o'yinlarining rivojlanish tarixi, milliy o'yinlarga oid ko'nikma va malakalar, milliy o'yinlar vositasida harakatlarga o'rgatish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish, hakamlik qilish bilan bog'liq bo'lgan masalalarini o'z ichiga oladi.

O'zbek milliy sport turlari - O'zbek xalqining o'ziga xos turmush tarzi, mehnat faoliyati va dam olish sharoiti asosida rivojlangan sport turlari bo'lib, ularga kurash (belbog'li kurash), turon, o'zbek jang san'ati, uloq (ko'pkari) va boshqalar kiradi. Milliy xalq o'yinlarini xalqimzning bir necha yillik madaniy boyliklari haqidagi tasavvurlarini ma'lum darajada kengaytiradi, hozirgi hayotga singdirish yo'llarini boyitishga yordam beradi. Milliy halq o'yinlar jismoniy tarbiyaning eng ta'sirchan usullaridan bo'lib, talabalarda aqliy, ahloqiy va nafosat tarbiyasini birgalikda muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim vositadir. Shuning uchun talabalar o'yinlarining ruhi, tabiati, saviyasi, ishtirokchilarning hatti-harakatlari kabi jihatlariga ham e'tibor berish zarur.

***Fanni o'qitishdan maqsad*** – talabalarning milliy sport turlari va xalq o'yinlarining nazariy va amaliy asoslarini o'zlashtirishdan iborat. Milliy sport turlari va xalq o'yinlarning rivojlanish tarixini; o'yin qoidalari, tasnifini; texnik va milliy va harakatli o'yinlarning ahamiyatini; dastlabki harakatlarga o'rgatish vosita, uslub va tamoyillariga ega bo'lishi va bilishi kerak.

***Fanning o'qitish vazifalari*** – talabalarda milliy sport turlari va xalq o'yinlar vositasida harakatlarga o'rgatish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, mashg'ulot o'tkazishda foydalanish, musobaqalarni tashkillashtirishga oid kasbiy-pedagogik malaka va ko'nikmalarni hosil qilish hamda shakllantirishga qaratilgan.

**3.**

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg`ulotlari) (22-soat)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Milliy sport turlari va xalq o'yinlarning insonning jismoniy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni. (2-soat)**

Ushbu o'zbek xalq o'yinlari insonni jismoniy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga aloqadorligini yoritish asosiy maqsad qilib olingan. Darhaqiqat yuqorida qayd etilgan tushunchalar o'rtasida uzviy bog'lanish mavjuddir.

**2-mavzu. Milliy sport turlari va xalq o'yinlarni tiklash va rivojlantirish. (2-soat)**

Xalq milliy o`yinlari avloddan avlodga meros bo`lib o`tib, kelayotgan muhim faoliyat va ijtimoiy pedagogik jarayondir. Bular orasida kurash, ko`pkurash, poyga va boshqa ot o`yinlari hamda darboz, tosh ko`tarish, turli harakatli o`yinlar muhim o`rin tutadi. Ularning mazmun va shakllarida deyarli barcha jismoniy sifatlar bilan birgalikda insonlar o`rtasida do`stlik, hamkorlik, hamjixatlik va o`zaro hurmat kabi fazilatlar ham mujassamlashgan

**3-mavzu. Milliy o'yinlarning tarbiyaviy ta'siri. (2-soat)**

Mustaqilligimiz sharofati bilan tarixiy taraqqiyotimiz zarvaraqlarini qaytadan ochib, asrlar mobaynida buyuk turon xalqini tarbiyalab kelgan tarbiya uslublaridan, ota-bobolarimiz yaratgan va katta samara bergan tarbiya nazariyasidan saboq olamiz.

Bu borada milliy xalq o'yinlarining ahamiyati beqiyosdir. Milliy xalq o'yinlari orqali yoshlarning aqliy va ahloqiy jihatdan barkamolligi ortadi. Baquvvat, jismoniy yetuk, chidamli irodali bo'lib tarbiyalanadi. Milliy halq o'yinlari uzoq tarixga ega bo'lib musoboqalarda turli urf-odatlar marosimlarda o'ynab kelingan.

**4-mavzu. Milliy sport turlari va xalq o'yinlarning mazmuni, mohiyati va maqsadga oid tasnifi. (2-soat)**

Xalq milliy o'yinlari, jumladan o'zbek milliy o'yinlari barcha xalq va elatlar kashfiyotlari kabi (musiqa, kulolchilik, gilam toqish asboblari, ashula va raqs, ertak va h.k.) insoniyat tarixining turli ijtimoiy iqtisodiy boshqichlarida taraqqiy etgan o'ziga xos xususiyatlar asosida "ixtiro" qilingan va shakllanib kelgan.

**5-mavzu.Milliy harakatli o'yinlar va ularning bola tarbiyasida tutgan o'rni. (2-soat)**

O'zbek xalq milliy harakatli o'yinlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish, ularni maktab, bog'cha o'quv dasturlariga kiritish, ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan turlarini sport darajasiga ko'tarish jismoniy madaniyat fani oldidagi eng dolzarb muammolardan biriga aylanganligini ko'rsatadi.

**6-mavzu.Aholi turar joylarida milliy xalq harakatli o'yinlarni tashkil qilish. (2-soat)**

O'zbekiston Respublikasi jahondagi boshqa mustaqil davlatlar kabi o'zining yo'lini topib rivojlanib borayotgan bir paytda dadil qadam tashlab o'zining milliy xalq o'yinlarini rivojlantirish masalasi bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etishi, xalqmizni qadim-qadimdan milliy qadriyatlarimizga mansub bo'lgan udumlarni, xalq ijodiy hunarmandchiligining va qolaversa, xalqmiz ichida ko'p yillik tarixga ega bo'lgan harakatli o'yinlarni tiklash. Ularni rivojlantirish aynan mahallalarda yoshlarimizning kundalik hayotda o'z aksini topmoqda.

**7-mavzu.Milliy sport turlari va xalq o'yinlarni tashkillashtirish va o'tkazishda qo'yiladigan pedagogik talablar. (2-soat)**

Har kim o'zini jismonan tarbiyalashi uchun jismoniy madaniyat va sportning zarurligini tuShunib yetishi va qunt bilan o'ziga yoqqan ma'lum bir jismoniy mashg'ulotlar tizimi asosida salomatligini shakllantirishi kerak. Xalqimiz farzandlarining jismoniy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish tarbiyaning ajralmas qismi bo'lgan jismoniy madaniyat jarayonida amalga oshiriladi.Jismoniy madaniyatning maqsadi jamiyatning sog'lom, xushchaqchaq, har tomonlama jismoniy rivojlangan, mehnat va Vatan himoyasiga tayyor turgan quruvchilarini tarbiyalashdan iborat uzoq muddatli, uyushtirilgan pedagogik jarayondir.

**8-mavzu. Milliy sport va milliy o`yinlarini rivojlanishini muammolari. (2-soat)**

Xalq milliy o'yinlari avloddan avlodga meros bo'lib o'tib, kelayotgan muhim faoliyat va ijtimoiy pedagogik jarayondir. Bular orasida kurash, ko'pkurash, poyga va boshqa ot o'yinlari hamda darboz, tosh ko'tarish, turli harakatli o'yinlar muhim o'rin tutadi. Ularning mazmun va shakllarida deyarli barcha jismoniy sifatlar bilan birgalikda insonlar o'rtasida do'stlik, hamkorlik, hamjixatlik va o'zaro hurmat kabi fazilatlar ham mujassamlashgan.

**9-mavzu.Milliy harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi. (2-soat)**

Mustaqillik sharofati tufayli jismoniy tarbiya va sport sohasida keng istiqbollar ochilmoqda, bu ayniqsa xalqning milliy o`yinlari va mashqlari, sport turlari bo`yicha o`tkaziladigan jismoniy tarbiya darslarida namoyon bo`lmoqda.

**10-mavzu. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga milliy harakatli o'yinlarini o'rgatish metodlari. (2-soat)**

O'zbek milliy o'yinlari o'zining xilma-xilligiga qaramasdan umumiy qonuniyatlariga bo'ysunadi, shu bilan birga an'analarga, ishlab chiqarish usuliga. Iqlim sharoitlariga bog'liq bo'lgan o'ziga xos xususiyatlariga ham ega. Ular irodani tarbiyalashni ta'minlaydi, ma'naviy sifatlarni. Ayniqsa, kattalarga hurmat, samimiylik, prinsipiallik. Odillik. O'zaro yordam kabi sifatlarni shakllantiradi. Ularning muhim jihatidan jamoatchilik, insonparvarlik va o'rtoqchilikni tarbiyalashdir.

**11-mavzu. Milliy sport turlari va o'yinlari jismoniy tarbiya va salomatlik omili sifatida. (2-soat)**

Milliy sport turlari va o'yinlari oila, yashash joyi, o'quv tarbiya muassasalarda tashkil qilish va o'tkazish marosimlarini hayotga tadbiq qilishzarur ekanligini ko'rsatadi. O'yinlar va milliy sport turlarining mohiyatishundaki,xalqimizning milliy ruhiyati, aqil-zakovati tarix sinovlaridan o'tganbebaho boylik sifatida tarbiya samaradorligini yuqori saviyaga ko'taradi.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (38-soat)**

Amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar mavzular bo'yicha:

- talabalarga nazariy xarakterdagi bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash va chuqurlashtirishga yordam berish;
- ilmiy adabiyotlardan foydalanishga o'rgatish;
- amaliy mashg`ulotda kichik guruhlarda ishlsash;
- talabalarni bilim ko'nikma va malakalarini amaliy tajriba jarayonida mustahkamlash.

**III.1. Amaliy mashg`uloti mavzulari. (38-soat )**

1-mavzu. Aholi yashash joylarida tashkil qilinadigan milliy xalq o'yinlari mazmuni va qoidalari bilan o'rgatish. (2-soat).
2-mavzu. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan milliy xalq o'yinlarini o'rgatish. (2-soat).
3-mavzu. O'rta yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan milliy xalq o'yinlarini o'rganish. (2-soat).
4-mavzu. Katta yoshdagi bolalar bilan tashkil qilinadigan milliy xalq o'yinlarini o'rgatish. (2-soat).
5-mavzu. Istrohat bog'larida va axoli dam olish maskanlarida tashkil qilinadigan milliy xalq o'yinlarini o'rganish. (2-soat).
6-mavzu. Ommaviy bayramlarda va sport tadbirlarida o'tkaziladigan milliy xalq o'yinlarini o'rganish. (2-soat).
7-mavzu. Turli yoshda qo'llaniladigan milliy va harakatli o'yinlarning xususiyatlari. (2-soat).
8-mavzu. Darsdan tashqari vaqtda tashkil qilinadigan milliy xalq o'yinlari. (2-soat).
9-mavzu. Turli shakldagi mashg`ulotlarda milliy va harakatli o`yinlarni qo`llash. (2-soat).
10-mavzu. Mustaqilligimiz tufayli maktablarda milliy o'yinlarimizga qaytish. (2-soat).
11-mavzu. Harakat ko'nikmalarini shakllantiruvchi sport turlari mazmuni va milliy xalq o'yinlari qoidalari bilan tanishtirish va ularni o'tkazish uslubiyati. (Kurash, turon va belbog'li kurash) (2-soat).
12-mavzu. Kuchni rivojlantiruvchi sport turlari mazmuni va milliy xalq o'yinlari qoidalari bilan tanishtirish va ularni o'tkazish. (2-soat).
13-mavzu. Tezkorlikni rivojlantiruvchi milliy harakatli o'yinlar mazmuni va qoidalari bilan tanishtirish va ularni o'tkazish (torishmachoq, qopqon, insiz quyon,bo'ron). (2-soat).
14-mavzu. Chaqqonlikni rivojlantiruvchi milliy xalq o'yinlar mazmuni va qoidalari bilan tanishtirish va ularni o'tkazish uslubiyati. (2-soat).
15-mavzu. Chidamkorlikni rivojlantiruvchi milliy xalq o'yinlar mazmuni va

qoidalari bilan tanishtirish va ularni o'tkazish uslubiyati. (2-soat).

16-mavzu. Egiluvchanlikni rivojlantiruvchi milliy xalq o'yinlar mazmuni va qoidalari bilan tanishtirish va ularni o'tkazish uslubiyati. (2-soat).

17-mavzu. Turli sinf o'quvchilariga mo'ljallangan milliy xalq o'yinlar mazmuni va qoidalari bilan tanishtirish va ularnio'rgatish. (2-soat).

18-mavzu. Sinfdan va maktabdan tashqari vaqtlarda o'tkaziladigan milliy xalq o'yinlar bilan tanishtirish va ularni tashkil qilish uslubiyati. (2-soat).

19-mavzu. Sport bayramlarini o'tkazishda tashkil qilinadigan milliy harakatli o'yinlarni o'rganish (tosh ko'tarish, arqon tortishish, besh tosh, xo'rozlar jangi). (2-soat).

### IV. Mustaqil ta'limni o'zlashtirish tartibi.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan portfolio va taqdimotlar tayyorlash tavsiya etiladi.

Mustaqil ta'limni tayyorlashda "Milliy sport turlari va xalq o'yinlarining o'rgatish metodikasi" fanining xusisiyatlarini hisobga olgan holda talabaga quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- Tarqatma materiallardan foydalangan holda fanni to'liq o'zlashtirish;
- Maxsus adabiyotlardan foydalangan holda fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- Fanning talaba tomonidan o'quv-ilmiy tadqiqot ishlarini bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan bo'limlarini va mavzularini chuqur o'rganish;
- Masofaviy ta'limdan foydalanish va hokazo;
- Mustaqil ta'lim talabalarga oldindan berib qo'yilgan mavzular bo'yicha referat, diagrammalar chizish va tahlil qilish; jadvallarni to'ldirish, qo'shimcha ma'lumotlar to'plash orqali amalga oshiriladi

### IV.1. Mustaqil ta`lim uchun tavsiya etiladigan mavzular.

1.Kurash sport turining qoidalari

2.Belbog'li kurash sport turining qoidalari

3.Turon sport turining qoidalari

4.O'zbek jang san'ati sport turining qoidalari

4.Uloq-ko`pkari sport turining qoidalari

5.Milliy sport turlari va xalq o'yinlarning insonning jismoniy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni.

6.Milliy sport turlari va xalq o'yinlarni tarbiyaviy sog'lomlashtiruvchi va ta'lim berishdagi ahamiyati.

7.Milliy sport turlari va xalq o'yinlarning ahamiyati, mazmuni va klassifikasiyasi.

8.Turli yoshda qo'llaniladigan milliy va harakatli o'yinlarning xususiyatlari.

9.Jismoniy tarbiya bo'yicha maktab darslari va darsdan tashqari vaqtlarda qo'llaniladigan xalq harakatli o'yinlarini o'zlashtirish.

10.Sport to'garaklariga bolalarni tanlashda qo'llaniladigan xalq harakatli o'yinlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati.

11.Xalq harakatli o'yinlarini tashkil qilish va o'tkazish uchun qo'yiladigan pedagogik talablar.

12.Turli sport turlariga xos harakat sifatlari va malakalarini rivojlantirishga mo'ljallangan milliy va harakatli o'yinlarni o'zlashtirish va qo'llash.

13. Milliy xalq o'yinlarni o'qitish metodikasi fanining maqsadi hamda vazifalari.

14. Milliy xalq o'yinlar tarixi va qisqacha tushuncha, turkumlari, rivojlanish bosqichlari va pedagogik ahamiyati.

15. Milliy xalq o'yinlarni bolani yoshiga mos holda tanlash, tahlil qilish va o'tkazish metodikasi.

16. Milliy xalq o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi.

17. Milliy xalq o'yinlarni darsni asosiy qismida mos holda tanlash va tahlil qilish.

18. Kichik yoshdagi bolalarga beriladigan harakatli o'yinlarni o'rgatish.

19. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida qo'llaniladiga o'yinlar.

20. Jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi harakatli o'yinlarni o'rgatish.

21. Milliy harakatli o'yinlarni o'tkazish metodikasi

22. Turli yoshli o'quvchilar bilan harakatli o'yinlarni o'tkazish.

23. Bayram tadbirlarini o'tkazish jarayonida harakatli o'yinlardan foydalanish.

24. Sport bayramlarni o'tkazishda harakatli o'yinlardan foydalanish.

25. Harakatli o'yinlar orqali sport o'yinlari elementlarini o'rgatish

26. Kurash turlariga xos harakatli o'yinlar.

27. Milliy xalq o'yinlarni darsni asosiy qismida mos holda tanlash va tahlil qilish.

28. Estafetali harakatli o'yinlarni o'tkazish metodikasi.

29. Katta yoshdagi bolalarga beriladigan harakatli o'yinlarni o'rgatish.

30.Milliy va harakatli o'yinlarni xalq orasida kengaytirish, alpomish va barchinoy test meyorlari bilan uzviy bog'lash.

31.Soglamlashtiruvchi hamda hordiq chiqaruvchi harakatli o'yinlarni o'rgatish

32.Harakatli o'yinlarni rejalashtirish va nazorat, harakatli o'yinlar jarayonida sport anjomlari va inshoatlaridan foydalanish.

33.Bayram tadbirlarini o'tkazish jarayonida harakatli o'yinlardan foydalanish.

34.Turli maskanlarda tashkil qilinib o'ynaladigan harakatli o'yinlar.

35.Sport turlariga hos harakatli o'yinlar.

36.Turli yoshli o'quvchilar bilan harakatli o'yinlarni o'tkazish

37.Harakatli o'yinlarni o'rgatish bosqichlari va uslublari.

38.Harakatli o'yinlarga rahbarlik qilish

39.Milliy harakatli o'yinlarni o'tkazish metodikasi

40.Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida qo'llaniladiga harakatli o'yinlar.

41. O'zbekiston mustaqilligi tufayli milliy harakatli o'yinlarni o'rganishdan maqsad

| | |
|---|---|
| | nima.<br>42. Harakatli o‘yinlar qachon va qanday qilib paydo bo‘lgan.<br>43. Markaziy Osiyo va boshqa xududlarda bir-biriga o‘xshash qanday harakatli o‘yinlarni tilga olish mumkin.<br>44. Harakatli o‘yinlarning hozirgi davrdagi foydali jihatlari nimada.<br>45. Umumta’lim o‘rta maktablarida tashkil etiladigan milliy harakatli o‘yinlar qaysi tamoyillar asosida bajariladi. |
| 4. | **V. Ta`lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalar.**<br>Fanni o’zlashtirish natijasida talaba:<br>Fan bo’yicha talabalarning bilim, ko’nikma va malakalariga quyidagi talablar qo’yiladi. ***Talaba:***<br>- jismoniy sifatlar, texnik-taktik usullar, ularning fazalari, elementlari va qismlari haqida tasavvurga ega bo’lish.<br>- texnik-taktik usullarini nazariy asoslarini o’zlashtirish haqida ***tasavvurga ega bo’lishi kerak;***<br>Milliy sport turlari va xalq o’yinlarining rivojlanish tarixini; o’yin qoidalari, tasnifini; texnik va milliy va harakatli o’yinlarning ahamiyatini; dastlabki harakatlarga o’rgatish vosita, uslub va tamoyillariga ega bo’lishi va ***bilishi kerak;***<br>- o’yin texnikasi va taktikasiga oid harakat ko’nikmalariga; Milliy sport turlari va xalq o’yinlari o’rgatishda tasavvurga ega bo’lishi, vosita va uslublarni tanlay bilish va ularni me’yorlash ***ko’nikmasiga ega bo’lishi kerak***;<br>- talaba bajarilayotgan milliy va harakatli o’yinlarni tahlil qilish; musobaqalarni tashkil qilish hamda o’tkazish; dars bayonnomasini tuzish, darsni to’liq va alohida qismlarini o’tkazish; ta’lim muassasalarida milliy va harakatli o’yin mashg’ulotlarini tashkil qilish va o’tkazishga oid kasbiy-pedagogik ***malakalariga ega bo’lishi kerak.*** |
| 5. | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>- ma’ruzalar;<br>- interfaol keyslar;<br>- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>- guruhlarda ishlash;<br>- individual loyihalar;<br>- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to’la o’zlashtirish, tahlil natijalarini to`g`ri aks ettira olish, o’rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo’yicha yozma ishni topshirish.<br>**Joriy nazorat.** Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg’ulotlariga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.<br>Jami seminar mashg’ulotlari bo’yicha o’zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.<br>**Oraliq nazoratlar.** Oraliq nazoratlar semestr davomida ma’ruza mashg’ulotlari o’quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o’tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta’lim topshirig’i kiradi.<br>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to’plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.<br>**Yakuniy nazorat**<br>Yakuniy nazorat yozma yoki test shaklida o’tkaziladi. Talabaning yakuniy nazoratdagi o’zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to’plagan talabalar fanni o’zlashtirgan hisoblanadi. |

**VIII. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

**Asosiy adabiyotlar**


1.T.S.Usmanxodjayev, A.A.Pulatov, S.S.Tajiboyev, F.A.Polatov. Sport va harakatli o’yinlar. (Milliy va harakatli o’yinlar) “Cho’lpon nomidagi nashriyot-matboa ijodiy uyi” Toshkent-2018

2. Usmanxodjayev T.S, Sh.X.Isroilov, A.A.Pulatov, Sh.A.Pulatov. Milliy va harakatli o‘yinlar. //Darslik.T.: “Iqtisod-moliya”, 2015.

3.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o’tkaziladigan harakatli o’yinlar. F.Xo’jayev Toshkent-2022

4. Nurmatov E.Z.Milliy sport turlari va xalq o’yinlarini o’rgatish metodikasi (Jismoniy madaniyat fakultetining umumiy kurs talabalariga mo’ljalangan uslubiy qo’llanma). Jizzax-2022 yil


**Qo’shimcha adabiyotlar**


5. Rahimqulov K.Milliy harakatli o’yinlar.//O’quv qo’llanma.T.:2012

6. Kasimova M.U., Kurbanova M.A., Isakulov E.I. Opit upravleniya podvijnimi igrami pri podgotovke yunix tennisistov. T.: 1999.

7. Rasulev A.T., Pulatov A.A., Qosimova M.U. O’zbek xalq o’yinlari ularning tasnifi va tavsifi. //O’quv qo’llanma. T.: 1996.

8. Usmonxodjayev T.S., Harakatli o’yinlar. T.: O’qituvchi, 1992.

9. Usmonxodjayev T.S., 500 mashq va harakatli o’yinlar. T.: 1999.

10. Usmonxodjayev T.S., Milliy sport turlari va xalq o’yinlar. //Darslik. T.:Iqtisod moliya, 2015.

11. Qurbonova M.A., Qosimova M.U. Milliy va harakatli o‘yinlar. // Oliy o‘quv yurtlari umumiy kurs talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. T.: 2009.


**Internet saytlari**


12. www.lex.uz – O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari sayti.

13. www.gov.uz - O’zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portal.

| |
|---|
| 14. www.natlib.uz - O'zbekiston Respublikasi Milliy kutubxonasi sayti.<br>15. www.ziyonet.uz - O'zbekiston Respublikasi ta'lim portal<br>14. www.uzdjtsu.uz - O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti sayti.<br>15. https://www.sciencedirect.com |
| Milliy sport turlari va xalq o'yinlarining o'rgatish metodikasi fanining o`quv dasturi Jizzax davlat pedagogika universiteti Kengashining 2022 yil "___" _________dagi ____sonli Kengash qarori bilan tasdiqlangan. |
| **Fan/modul uchun ma`sullar:** N.Abdukarimov, I.Haydarov "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" kafedrasi o`qituvchilari. |
| **Taqrizchilar:**<br>**F.Q.Axmedov** "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" kafedrasi professor.<br>**K.D.Raximqulov** O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti "Jismoniy madaniyat va sport" kafedrasi v.b.professor. |